

**ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ
ТАҲЛИЛИ**

UZBEKISTAN LAW REVIEW

**ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИЙ ЖУРНАЛ	SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL	НАУЧНО АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
--------------------------------------	--	--

**2024
№4**

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

БОШ МУҲАРРИР:

Гулямов Саид Саидахарович — юридик
фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович — ю.ф.д.,
профессор.

Ҳўжаев Шохжаҳон Акмалжон ўғли — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқюлов Омонбой — ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович — ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович — ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаевна — ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоевич — ю.ф.д., доц.

Бекоев Ихтиёр — ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Сохибжонович — ю.ф.д., проф.
в.б.

Хазратқулов Одилбек Турсунович — юридик
фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билялович — ю.ф.д.,
профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович — ю.ф.д.,
профессор.

Нарзиёв Отабек Саъдиевич — ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна — юридик
фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун қуйидагиларга мурожаат этиш
сўралади:

Гулямов Саид Саидахарович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон
нужаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки
www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Маҳкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журналлари рўйхатида киритилган.

Ушбу журналда баён этилган натижалар, хулосалар,
талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб,
Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик
университети сиёсати ёки фикрини акс эттирмайди.
2024 йилда нашр этилди.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик
университетига тегишли. Барча ҳуқуқлар ҳимояланган.
Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва
қўлайлиги Тошкент давлат юридик университети рухсати
билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент
давлат юридик университетига мурожаат этилади.
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ
кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**
Нашриёт муҳаррири: **Н. Ниязова**
Техник муҳаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишга рухсат этилди — 25.12.2024

Нашриёт ҳисоб табоғи — 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди
Адади — 100 нусха.

ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ

4/2024

МУНДАРИЖА

МУНДАРИЖА	
Ш.Туйчиева Теоретические основания и критический анализ подхода к урегулированию инвестиционных споров в контексте статьи 63 Закона Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»	3
У.Шарахметова Укрепление в семье личных и имущественных прав обязанностей супругов на основе принципа равенства	7
Ж.Тўраев Ходимларнинг меҳнат ҳуқуқларига риоя қилиниши бўйича давлат назорати ва текширувининг назарий ва амалий аҳамияти	11
Д. Имомова Определение применимого права для внешнеэкономических сделок в условиях цифрового пространства	15
Х.Шарипова Правовое регулирование облачных технологий в контексте международного сотрудничества	17
I.Abdikhakimov Quantum computing and its impact on cybersecurity: redefining legal frameworks for a post-quantum era	20
I. Rahmatulloyev Prokuratura organlarining fuqarolik huquq va burchlarini amalga oshirishdagi ishtiroki	24
S. Tatar, N. Dilboboev Means of international investment dispute resolution	28
Э.Инамджанова Особенности преподавания коллизионного права в современном образовательном процессе	32
J.Askarov Sun'iy intellekt yordamida sog'liqni saqlashni rivojlantirish: huquqiy takomillashtirish	46
T.Pulatov Digital Financial Assets as an Object of Civil Rights	50
Д.Имамалиева Развитие механизмов альтернативного разрешения споров на международной и национальной арене	57
SH.Almosova Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash usullari va vositalari tahlili	62
A.Akramov A comparative analysis of international legal norms regarding the inheritance of digital property	69
E.Asadov Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy javobgarlik va uning yuridik tabiati	77
D.Abdullaeva The system of international control over the observance of human rights at work	88
М. Турдалиев Определение и сущность искусственного интеллекта (ии) в контексте международной торгов- ли	93
О.Хазратқулов Рақамли активлар билан боғлиқ муносабатларни фуқаролик-ҳуқуқий тартибга солиш масаласида хорижий мамлакатлар тажрибаси	102
Б.Акмалхонов Механизмы защиты права собственности в международном праве	109
Sh.Alamonova Revisiting Public Services under GATS: A Legal Analysis of Commitments and State Discretion	114
Б.Саидов Проблемы гражданско-правового обеспечения кибербезопасности охраняемых объектов: договорные аспекты	118
Sh.Sotvoldiyev Xalqaro tijorat sudlari - nizolarni hal qilishning usuli sifatida	124
А.Вахабов Халқаро хусусий ҳуқуқда — lex voluntatis тамойили	126

Askarov Jaloliddin To'ychiyevich

Biznes huquqi kafedrası muridi o'rinbosari, PhD

SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA SOG'LIQNI SAQLASHNI RIVOJLANTIRISH: HUQUQIY TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarini tibbiy xizmatlarda qo'llash, bu jarayondagi huquqiy va axloqiy tamoyillar, shuningdek, milliy qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlar tahlil qilinadi. O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasiga muvofiq, tibbiyotda sun'iy intellektdan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, tibbiy xizmatlar, huquqiy tartibga solish, axloqiy tamoyillar, Raqamli O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение технологий искусственного интеллекта в медицинских услугах, правовые и этические аспекты этого процесса, а также пробелы в национальном законодательстве. Подчеркивается необходимость разработки специального законодательства для регулирования использования искусственного интеллекта в медицине в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030».

Ключевые слова: искусственный интеллект, медицинские услуги, правовое регулирование, этические принципы, Цифровой Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the application of artificial intelligence technologies in healthcare services, the legal and ethical principles involved, and gaps in national legislation. The need for developing specific legislation to regulate the use of artificial intelligence in medicine under the "Digital Uzbekistan — 2030" strategy is highlighted.

Key words: artificial intelligence, healthcare services, legal regulation, ethical principles, Digital Uzbekistan.

Kirish

So'nggi yillarda sun'iy intellekt dunyo bo'ylab katta mashhurlikka erishdi va sog'liqni saqlash sohasi ham bu inqilobiy texnologiyadan chetda qolmadi. Sun'iy intellekt sog'liqni saqlash sohasida qo'llanib kelinayotgan bo'lsa-da, yaqinda foydalanuvchilarga yo'naltirilgan generativ sun'iy intellekt vositalarining joriy etilishi bu texnologiyani yana ham e'tiborga olib chiqdi. Bu o'z navbatida hukumatlar, korporatsiyalar, iste'molchilar va boshqa sohalarining diqqat markaziga aylandi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish zamonaviy dunyoda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi"ning tasdiqlanishi bu sohada ulkan imkoniyatlar va istiqbollarni namoyon qilmoqda. Mazkur

strategiya "Raqamli O'zbekiston — 2030" dasturining asosiy maqsadlari va vazifalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni ko'zda tutadi.

"Sun'iy intellekt" atamasi birinchi marta 1955-yilda Dartmut kollejida tashkil etilgan konferensiya taklifnomasida ishlatilgan. Biroq, sun'iy intellekt ilovalari sog'liqni saqlash sohasiga faqat 1970-yillarning boshlarida kirib kelgan, o'shanda MYCIN nomli sun'iy intellekt dasturi ishlab chiqilgan edi. Ushbu dastur qonni yuqtiruvchi infeksiyalarni aniqlash va ularga qarshi davolash usullarini taklif qilishga yordam bergan.

Sun'iy intellekt bo'yicha tadqiqotlar rivojlanishda davom etdi va 1979-yilda Sun'iy intellekt bo'yicha Amerika assotsiatsiyasi tashkil etildi (hozirda Sun'iy intellekt rivojlantirish bo'yicha assotsiatsiya – AAAI).

1980-yillar va 1990-yillar davomida yangi sun'iy intellekt tizimlarining ishlab chiqilishi tibbiyot sohasida quyidagi yutuqlarga erishishga yordam berdi:

Ma'lumotlarni tezroq yig'ish va qayta ishlashni ta'minlash;

Jarrohlik amaliyotlarini yanada aniqroq bajarishga yordam berish;

DBA (ma'lumotlar bazasini boshqarish) bo'yicha chuqur tadqiqotlar va xaritalashni amalga oshirish;

Elektron tibbiy yozuvlarni kengroq joriy etish imkonini yaratish.

Bu davr sog'liqni saqlash tizimlarida sun'iy intellektning dastlabki amaliy qo'llanilishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qildi.

1971-yilda Rutgers universitetida Saul Amarel tomonidan Biotibbiyotda kompyuterlar bo'yicha tadqiqot ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1973-yilda Stenford universiteti tibbiyotda tibbiy eksperimental sun'iy intellekt klinik tadqiqotlari o'tkazildi.

CASNET modeli 3 ta alohida dastur, ya'ni: model yaratish, maslahat va ma'lumotlar bazasi hamkorligi asosida tashkil etilib, model kasallik haqidagi ma'lumotlarni bemorlarga alohida-alohida yetkazib shifokorlarga bemorlarni masofadan boshqarish bo'yicha maslahatlar berish imkoniyatini berdi. Mazkur ishlanma 1976-yilda Las-Vegasda (Nevada shtati) Oftalmologiya akademiyasi yig'ilishida ommaga namoyish etildi. Fikrimizcha, tibbiy xizmatlar bozorida Slni qo'llashda avvalo uning yuridik tarifi va fundamental asoslariga etibor qaratish maqsadga muvofiq.

Sog'liqni saqlash tizimi fundamental jihatdan tartibga solingan bo'lib, uning huquqiy asoslari milliy qonunchilikda o'z aksini topgan. Ammo bugungi munosabatlar maydoni kengaygani sari huquqiy munosabatlar maydoni ham kengaymoqda. Tibbiy xizmatlarda Slni qo'llash huquqiy tartibga solishga nisbatan ancha oldinda. Jonas Schuett SI tushunchasini boshqa sohalarining ta'riflaridan sezilarli darajada farqlanishi, sudlar Slni huquq doirasida aniq ta'riflash kerakligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bu yo'nalishda "sun'iy intellekt" atamasini ishlatishga e'tiroz bildiradi.

Sun'iy intellekt, olimlar fikricha, yetarlicha

o'rganilmagan yangi hodisa bo'lib, har qanday sun'iy ravishda yaratilgan aql ekanligini, ya'ni kompyuter yoki boshqa qurilmalarda inson tafakkurini simulyatsiya qiluvchi dasturiy ta'minot tizimini bildiradi. Misol uchun, shifokor yordamisiz kasalliklarni aniqlaydigan dasturiy ta'minot, tibbiy elektron kartalarni boshqarish tizimlari, inson qadami va yurak urishiga asoslanib tavsiyalar berish va boshqalar. Tadqiqotchi M.Uillikning qarashlariga ko'ra, sun'iy aqli kompyuterlar ularni yaratgan turlarga tobora ko'proq o'xshab bormoqda. Mikroskopik darajada, noaniqlik uchun inson qobiliyati bilan ishlaydigan kompyuter sxemalarini qurishga urinishlar qilinmoqda. Schütte Béatrice, Lotta Majewski va Katri Havuga ko'ra, Sun'iy intellekt deganda mustaqil ravishda insonga o'xshash vazifalarni bajara oladigan, mustaqil xulosalar va qarorlar qabul qiladigan kompyuter dasturi yoki mashina tushuniladi. SI ilovasi mashinani o'rganish va katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish orqali o'z vazifalarini bajarishga "o'rgatilgan". SI bizning kundalik hayotimizda hamma joyda mavjud. Sun'iy intellekt jamiyatimizni o'zgartirayotgan bo'lsa-da, bu sohaga oid ko'plab huquqiy masalalar har tomonlama hal etilmagan.

Normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashga kelsak, huquqiy sohadagi ta'riflarni ishlab chiqish ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchi navbatda, ta'riflar subyektlarning yuridik maqomini belgilab toifalarga ajratishni qo'llab-quvvatlaydi va natijada qonunchilik hujjatlarining bajarilishi kafolatlanadi.

Ikkinchidan, huquqiy sohadagi ta'riflar chegaralash va huquqiy toifalarga aniqlik kiritishdan tashqari, qoidalar doirasini kengaytirishi mumkin. Bugungi jamiyatning jadal rivojlanishini hisobga olsak, har doim muayyan qoidalar qo'llanilishi kerak bo'lgan har bir vaziyatni oldindan aytib bo'lmaydi. Shu sababli keng ta'riflarni shakllantirish orqali yechim topish mumkin.

Demak, SIga nisbatan berilayotgan tushuncha va fikrlarning xilma-xilligi uning huquqiy maydonda hali aniq qanday qo'llash va amalga oshirishda ko'plab savollarga javob mavjud emasligini bildiradi.

Sun'iy intellekt yagona texnologiya yoki mashina emas, balki bir tizimli modellar to'plamidir. Ushbu texnologiyalarning aksariyati sog'liqni saqlash sohasi bilan bevosita bog'liq, ammo ular qo'llab-quvvatlaydigan maxsus jarayonlar va vazifalar juda xilma-xildir. Sog'liqni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi bir SI texnologiyalar quyidagicha tavsiflanadi:

Sog'liqni saqlashda an'anaviy mashina yordamida o'rganishni qo'llash keng tarqalgan yo'nalishlardan bo'lib, bemorning holatiga qarab davolash usullari va vositalari hamda davolash protokollarining ehtimoliy natijalarini bashorat qilishga asoslanadi.

Dastlab 2000-yilda AQShda tasdiqlangan jarrohlik robotlari aniq va minimal invaziv kesmalar, ginekologik jarrohlik, prostata jarrohligi, bosh va bo'yin jarrohligi amaliyotlarida yaxshi natijalar bera boshlagan. Biroq, muhim qarorlar hali ham inson jarrohlari tomonidan qabul qilinadi.

Dunyoda tibbiy xizmatlarda SI ni qo'llash bilan bog'liq

bir qator misollar va amaliy ishlar mavjud.

Tabiiyki, ko'plab misollar hayotda bo'lishi tibbiy xizmatda SI ni huquqiy tartibga solish vaqti kelganligini anglatadi. Shu sababli milliy qonunchiligimizda ham bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi qabul qilinib, mamlakatimizda SI texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, raqamli ma'lumotlar yuqori sifatini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Qarordagi muim jihatlari biri shuki, tibbiyot sohasida kompyuter tomografiyasi va tahlillarda SI texnologiyalarini qo'llash masalasiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5234-son, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil

31-iyuldagi "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 475-son, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 717-son qarorlari qabul qilinishi bilan SI ni tartibga solish bo'yicha maxsus rejim, ilmiy ishlanmalarni joriy etish ishlari boshlab yuborildi. Fikrimizcha, SI ni qo'llashga oid huquqiy asoslarning dastlabki jihatlari uning mavjudligini tasdiqlasa, boshqa tomondan qonun hujjatlarida ham tibbiy xizmat ko'rsatish sohasiga alohida urg'u berilayotgani huquqiy tartibga solish oldida bir qator jiddiy vazifalar qo'yilganini bildiradi.

Tibbiy xizmat ko'rsatishda SI ni qo'llashning huquqiy jihatlari, avvalo, huquqiy tartibga solish, SI ni qo'llash prinsiplari, axloq qoidalariga mosligi va boshqa bir qator fundamental jihatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'pchilik olimlar, SI ni tibbiy xizmat ko'rsatishda va boshqa sohalarida tadbiq etishda avvalo axloq normalariga mosligini muhokama qilishmoqda. Axloq qoidalari falsafiy fan doirasida bo'lib, yaxshilik va yomonlik, ularning axloq va inson xulq-atvori bilan aloqasini o'rganadi. Margarita Robles fikricha, g'oya, fikr va harakatning modeli, mavhum ma'noda o'ziga xos, ammo o'zgaruvchan doira va mazmunga ega va axloq g'oyasi, inson xatti-harakatlari modellari doimiy, qotib qolgan yoki turg'un bo'lmay, balki vaqt va makon orqali rivojlanib borishini o'zida aks ettiradi.

Tarixan yagona axloq qoidalari bo'lmagan, chunki turli insonlar va turli jamiyatlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar rivojlanishida axloq qoidalariga bir xil ahamiyat va vazifaga ega bo'lmagan. Bugungi jamiyatning axloqiy parametrlari klassik yunon yoki rim dunyolarida ishlab chiqilgan tamoyillar bilan bir xil emas. Ayniqsa, Yevropa jamiyatining axloqiy tamoyillari Osiyo, Amerika, Afrika yoki Islom dunyosidagi axloqiy qarashlar bilan bir xil emas.

Shu sababli axloqiy tamoyillarga rioya qilish ixtiyoriy,

shaxsiy yoki jamoaviydir. Bundan tashqari, axloqiy tamoyillarni amalga oshirishning qonuniyligi uzoq vaqtdan beri axloqiy, siyosiy va huquqiy savol ostida turibdi. Yevropa uslubidagi ijtimoiy, siyosiy yoki axloqiy modellarni tatbiq etish ham ko'pchilik davlatlar tomonidan qabul qilinmayapdi va ayniqsa, buni tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida ko'rish mumkin. Misol uchun, estetik jarrohlik amaliyoti asosida inson fitratiga zid bo'lgan ba'zi inson azolari o'zgartirilishi yoki umuman olib tashlanishi yoxud bir jinsdan boshqasiga o'zgartirish kabi axloqqa zid holatlarni ko'rish mumkin.

Ammo SI texnologiyalari rivojlangan davlatlarda axloq qoidalarining umumiy va farqli jihatlari ham ko'rish mumkin. Pekin sun'iy intellekt tamoyillari, sud tizimida sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha Yevropa axloqiy Xartiyasi, Oq uyning (AQSH) Fan va texnologiyalar boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda insonning sun'iy intellektga ishonchi, adolat va kamsitmaslik, xilma-xillik va inklyuzivlik, oshkorlik, hisobdorlik va javobgarlik, xavfsizlik va xavflarni nazorat qilish kabi asosiy tamoyillarga ega. SI da qo'llanilayotgan bazi axloq qoidalarini davlatlar misolida ko'rib chiqsak.

Yevropa Ittifoqida axloq va SI bo'yicha to'rtta asosiy ishchi tashkilot bo'lib, ular Fan va yangi texnologiyalarda axloq bo'yicha Yevropa guruhi (EGE) "Sun'iy intellekt etikasi to'g'risidagi bayonotida" 9 ta asosiy tamoyillar to'plamini taklif qiladi. Ikkinchi, "AI4People loyihasi" yuqorida tilga olingan EGE tamoyillari hamda shu kungacha ilgari surilgan 36 ta turli axloqiy tamoyillarni o'rganib chiqdi va ularni 4 ta umumiy tamoyillar ostida birlashtirdi. Uchinchisi, Yevropa Komissiyasi tomonidan tayinlangan SI bo'yicha yuqori darajadagi ekspertlar guruhi (AI HLEG) 2019-yil 8-aprelda "Ishonchli sun'iy intellekt bo'yicha etika qoidalarini"ni e'lon qildi. To'rtinchisi, Yevropa Ittifoqining sun'iy intellekt bo'yicha alyansi tomonidan taklif etilayotgan axloq qoidalarini keltiriladi.

Mazkur axloq qoidalariga quyidagilar kiradi:

raqamli maydonda asosiy e'tibor insonga qaratiladi;
birdamlik va inklyuziya;
tanlov erkinligi;
raqamli maydonida ishtirok etish;
xavfsizlik, himoyalanganlik va imkoniyatlar mavjudligi;
barqarorlik.

Xitoyning SI bo'yicha siyosatini to'rtta ustuvor yo'nalish belgilab beradi: xalqaro raqobat, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy boshqaruv va ma'naviy boshqaruv. H.Roberts fikricha, ushbu siyosat zahirida "boshqaruv uchun SI ni qo'llash xavfi ijtimoiy boshqaruvning moddiy jihatlari kuzatuv va ma'naviy nazorat bilan o'zaro bog'lashdan kelib chiqishi" maqsadi mavjud. Pekin sun'iy intellekt tamoyillari Yevropanikiga o'xshash umumiy yoki ba'zi axloqiy qadriyatlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, ularning talqini va amalga oshirilishi har bir jihatida ular bilan mos kelmasligi mumkin. Ushbu tamoyillar uchta toifada bo'linadi: Tadqiqot va rivojlanish, SI dan foydalanish va boshqaruv. "yaxshilik qil", "insoniyat uchun", "mas'uliyatli bo'l", "ochiqlik va bo'lishish" va "axloqiy bo'l" kabi eng muhim axloqiy qadriyatlar tadqiqotlar va rivojlanishga

bag'ishlangan bo'lsa, Boshqaruvga bag'ishlangan bo'limda esa "bandlikni optimallashtirish", "moslashuv va moderatsiya", va "uzoq muddatli rejalashtirish" kabi texnik yoki operatsion xarakterdagi tamoyillarni qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, axloqiy tamoyillarning joriy etilishi SI ni qo'llashda tibbiy xizmat sohasi uchun ham asosiy axloqiy mezonlar vazifasini bajarishi mumkin, chunki ushbu tamoyillar umume'tirof etilgan barcha sohalarda qo'llansa, maxsus tartibga solish obyekti ega sohalarda esa ba'zi o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Qolaversa, xususiy tibbiy muassasalar faqat daromad topish emas, balki inson huquqlarini hurmat qilishga ham mas'uldirlar. Ushbu mas'uliyatni bajarishda xususiy tibbiy muassasalar faol bo'lishlari, shartnomalarda belgilangan huquqlar va majburiyatlarni kengaytirishlari maqsadga muvofiq. JSST SI ni qo'llashda quyidagi axloqiy tamoyillarni taklif etadi:

avtonomiyani himoya qilish;
inson farovonligi, inson xavfsizligi va jamoat manfaatlarini rag'batlantirish;
shaffoflik, tushuntirish va tushunarlilikni ta'minlash;
mas'uliyat va hisobdorlik taminlash;
inklyuzivlik va tenglikni ta'minlang;
ta'sirchanlik va barqarorlikni targ'ib qilish.

Shu sababli tibbiy xizmat ko'rsatishda SI ning axloqiy jihatlari asosiy qoidalar sifatida inson asosiy huquqlarini hurmat qilish, shu jumladan qadr-qimmat, tenglik va kamsitmaslik tamoyillari bo'lishi lozim. Qolaversa, umumiy tamoyillardan tashqari, an'analar, qadriyatlar, diniy qarashlar, huquqiy tizimlar va mamlakatlarga qarab turli xil axloqiy tushunchalar va tamoyillar hisobga olinishi mumkin. Milliy huquq tizimida SI ning axloqiy tamoyillarini joriy etishda Yaponiya tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki mazkur davlat axloqiy tamoyillari bizning milliy manfaatlarimiz va qarashlarimizga mos tushadi. Shu sababli, SI tamoyillari sifatida quyidagi tamoyillar taklif etiladi.

qonunlar va qoidalarga rioya qilish;
o'zgalarning shaxsiy hayotini hurmat qilish; adolatlilik;
xavfsizlik;
halollik bilan harakat qilish;
mas'uliyat va ijtimoiy javobgarlik;
jamiyat bilan muloqot;
oshkorlik;
xilma-xillik va inklyuzivlik.

Ta'kidlash kerakki, SI ni tibbiy xizmatda va huquqiy tartibga solishda avvalo, daromad topish va tadbirkorlik jihatoidan ko'ra uning diqqat markazida inson va uning asosiy huquqlarini amalga oshirish bo'lishi maqsadga muvofiq, chunki xususiy tibbiyot muassasalarida garchi daromad maqsadidni ko'zlasa-da ammo asosiy e'tibor inson hayoti hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiy xizmatlarda turli ijtimoiy qatlamlarning huquqlarini himoyalash, narx va SI imkoniyatlaridan foydalanishda bolalar, qariyalar va nogironlarga nisbatan yuqori ehtiyotkorlikda bo'lish masalalarini huquqiy va axloqiy qoidalarda belgilash maqsadga muvofiq.

Chunki tibbiy xizmatda SI qo'llashda yetarli ma'lumotlar

berilmasligi aholining ayrim guruhlarida natijalarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini olib kelishi mumkin. Qolaversa, zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatishda tibbiy robotlar SI asosida jarrohlik robotlari, yordamchi robotlar va sog'liqni saqlash tizimi robotlari kabi bir qator turlarni tashkil etishini hisobga olish lozim.

Shunday bo'lsa, tibbiy xizmatda SI qo'llash ko'plab muammolarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, sun'iy intellektning rivojlanishi bilan insonlarning asosiy huquq va erkinliklari, ularni himoyalashda ta'sir qilishi mumkin bo'lgan muammolar. Risse va Crawford fikricha, bu kabi muammolar axloqiy qarashlar o'zgarishi, inson huquqlari nuqtayi nazaridan yondashish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, SI qurilmalarining (tibbiy robotlar) huquqiy maqomini aniqlash;

Uchinchidan, inson va SI o'rtasidagi munosabatlarga oid muammolar.

Albatta, milliy qonunchiligimizda, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish yoki nuqsonli mahsulotlar uchun javobgarlik to'g'risidagi normativ-hujjatlar, javobgarlikni belgilaydigan prinsip va tartiblar ham bor. Ammo shuni unutmaslik kerakki, Sining kirib kelishi va unga nisbatan huquqiy tartibga solish qoidalarini yana bir marta ko'rib chiqish kerakligini ham ko'rsatmoqda. Ayniqsa, huquqiy javobgarlik instituti bu borada ko'plab muammolarga uchrash ehtimoli mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 717-son qaroriga ilova Nizomga ko'ra "Ta'qdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun javobgarlik talabgorga yuklanishi", O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksi loyihasida "Tadbirkorlik subyekti tomonidan sotilgan (ishlab chiqarilgan) tovar (ish, xizmat) iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun mutlaqo xavfsiz bo'lishi", O'zbekiston Respublikasining Aholi sog'lig'ini saqlash kodeksi loyihasida esa umumiy javobgarlik xususiyatlari keltirilgan.

Bundan tashqari, inson xulq-atvori yetkazilgan zararni bilishi va anglashi qiyin bo'ladi. Bu muammoni Avstriya, Germaniya va Buyuk Britaniya milliy qonunchilik tizimida alohida o'rganilmoqda.

Shuning uchun isbotlash yuki tushunchasi SI da deyarli yengib bo'lmaydigan to'siq sifatida tasvirlanadi. Fikrimizcha, SIdan foydalanganda isbotlash yukini yuqoridagi subyektlar o'z zimmlariga olishi kerak. Boshqa tomondan esa G. Spindler va H. Zeh SI uchun qat'iy javobgarlik rejimini joriy etishni taklif qilishadi, ammo buning nozik bir tomoni borki, qat'iy javobgarlik texnika yangiliklari va kashfiyotlariga to'siq qo'yishi va buning aks ta'siri bo'lishi mumkin.

Qolaversa, S. Gulyamov va S. Bozarovlarning fikricha, SIni keng qo'llashda shifokor qarorlar asosiligidini aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, SIdan dastlabki foydalanish bo'yicha qaror ma'lum darajada

ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shifokor va SI o'rtasidagi davolash yondashuvida nomuvofiqlik bo'lsa, eng yaxshi davolash metodini tanlash bo'yicha shifokorlar maslahatini jalb qilish kerak.

Tibbiy xizmat ko'rsatishda SI qo'llashga oid fikr-mulohazalardan shuni anglash mumkinki, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning SIda axloq qoidalarini, huquq subyektiligi, fuqarolik huquqiy javogarlilik jihatlari birinchi navbatda o'rganilishi va tartibga solish talab etiladigan yo'nalishlar hisobalandi. Milliy qonunchiligimizda ham aynan shu yo'nalishdan foydalanish va tibbiy xizmat ko'rsatishda SI huquqiy tartibga solish mumkin. Xulosa qilib aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasida SI texnologiyalarini qo'llash haqida maxsus qonunchilik bazasi shakllangan, ammo mavjud hujjatlarda bu sohani batafsil tartibga soluvchi normativlar yetarli emas. SI asosida faoliyat yurituvchi tizimlar inson huquqlarini hurmat qilish, tenglik, oshkorlik va adolat kabi tamoyillarga asoslangan holda ishlab chiqilishi lozim. Mavjud axloqiy me'yorlarni Yevropa va Yaponiya tajribalarini hisobga olgan holda milliy qadriyatlarga moslashtirish talab qilinadi.

Birinchidan, sun'iy intellekt bilan bog'liq xavf-xatarlarni hal qilish uchun qat'iy huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur. Tibbiy xizmatlarda SI qo'llanishi huquqiy javobgarlik, ma'lumotlar maxfiyligi va kamsitish xavflarini o'z ichiga oladi, bu esa tibbiy sohada yangi normativ-huquqiy asoslarni talab qiladi.

Ikkinchidan, milliy qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish lozim. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida SI texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, ayniqsa tibbiyot sohasida SIga oid huquqiy va axloqiy masalalarni yanada batafsil yoritish talab etiladi.

Uchinchidan, maxsus qonunchilik ishlab chiqilishi kerak. Sun'iy intellektni tibbiy xizmatlarda qo'llash uchun maxsus qonun ishlab chiqilishi lozim. Ushbu qonunda SI texnologiyalarining tibbiy qarorlar qabul qilishdagi huquqiy va axloqiy asoslari, bemorlarning huquqlarini himoya qilish va SI tomonidan keltirilgan zarar uchun javobgarlik mexanizmlari yoritilishi kerak.

To'rtinchidan, axloqiy tamoyillarni qonunchilikda belgilash zarur. Bunda inson huquqlarini hurmat qilish, kamsitmaslik, xavfsizlik va shaffoflik tamoyillarini qonunchilikka kiritish, shuningdek, O'zbekiston milliy qadriyatlariga mos axloqiy qoidalarini belgilash muhimdir.

Beshinchidan, javobgarlik mexanizmlarini aniqlash talab qilinadi. SI texnologiyalari tomonidan yuzaga kelgan zarar uchun javobgarlikni shifokor va SI tizimlari o'rtasida taqsimlash hamda ishlab chiqaruvchilarning javobgarligini huquqiy asosda belgilash zarur.

Oltinchidan, tibbiy SI texnologiyalarini sertifikatlash tizimini joriy etish lozim. Ushbu sertifikatlar SI texnologiyalarining xavfsizligi va samaradorligini kafolatlashga xizmat qiladi. Mazkur takliflar sun'iy intellektni tibbiy xizmatda samarali qo'llash uchun zarur huquqiy va axloqiy asoslarni shakllantirishga yordam beradi. Shu orqali nafaqat texnologiyalarning rivojlanishi,

balki bemorlarning huquqlarini himoya qilish va sog'liqni saqlash sohasining sifatini oshirishga erishiladi.

Lawyer Herald. № 2. 2022. p. 36-42.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://www.lex.uz/docs/-7158604>
2. <https://www-formal.stanford.edu/jmc/history/dartmouth/dartmouth.html>
3. <https://aaai.org/>
4. <https://www.xsolis.com/blog/the-evolution-of-ai-in-healthcare/>
5. Askarov, J. (2021). Issues Of Using And Legal Regulation Of Digital Technologies In The Provision Of Medical Services. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(05), 49–52. <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue05-08>
6. Schuett J. A legal definition of AI. 2019. 1909.01095.
7. Cerka P. Liability for damages caused by artificial intelligence // Computer Law & Security Review. 2015 // <http://dx.doi.org/10.1016/j.clsr.2015.03.008>
8. Karimova, Shaxzoda. "SUN'IY INTELLEKT VA UNING YURIDIK SOHADAGI O'RNI." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.11 (2023): 59-65.
9. Schütte, Béatrice, Lotta Majewski, and Katri Havu. "Damages Liability for Harm Caused by Artificial Intelligence—EU Law in Flux." Helsinki Legal Studies Research Paper 69 (2021).
10. Davenport T. H., Glaser J. Just-in-time delivery comes to knowledge management // Harvard business review. 2002. №. 7. p. 107-11, 126.
11. Margarita R.C. "Artificial intelligence: From ethics to law." Telecommunications Policy 44.6 (2020): 101937.
12. <https://www.baai.ac.cn/beijing-ai-principles>.
13. Margarita R.C. "Artificial intelligence: From ethics to law." Telecommunications Policy 44.6 (2020): 101937. 2020. №. 6. — .p 101.
14. Floridi L. An ethical framework for a good AI society: Opportunities, risks, principles, and recommendations // Ethics, governance, and policies in artificial intelligence. 2021. p. 19-39.
15. Polona C. A. European declaration on digital rights and principles. 2022.
16. Roberts H. The Chinese approach to artificial intelligence: An analysis of policy and regulation // <https://ssrn.com/abstract/43469784>. Available at: SSRN.
18. Crawford, Kate, et al. "The AI now report." The Social and Economic Implications of Artificial Intelligence Technologies in the Near-Term (2016).
19. Schönberger D. Artificial intelligence in healthcare: a critical analysis of the legal and ethical implications // International Journal of Law and Information Technology. 2019. №. 2. p. 171-203.
20. Zech H. Künstliche Intelligenz und Haftungsfragen // Zeitschrift für die gesamte Privatrechtswissenschaft. 2019. №. 2. p. 198-219.
21. 2019. №. 2. p. 198-219.
22. Gulyamov S.S., Bozarov S.S. Questions of the liability of artificial intelligence in the field of healthcare //